



PRESS-RELIZ

2025-yil 24–26-sentabr kunlari Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida “Bank va Ma’rifat: Bilimli jamiyat bilan qudratli iqtisodiyot sari” forumi bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy kutubxona, O‘zbekiston nashrlari va kitob savdo uyushmalari assotsiatsiyasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda tijorat banklari hamkorligida tashkil etildi. Uch kun davom etgan forumda respublika banklari, nashriyotlar, ijodkorlar, jamoatchilik faollari va ko‘plab kitobxonlar qatnashishdi.

Forumning maqsadi: aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, kitobxonlikni kengaytirish, mahalla darajasida bilim manbalarini yaqinlashtirish va iqtisodiy qarorlar qabul qilinishida aholining qatnashuvini kuchaytirishga qaratilgan.

Forumning ochilishi 24-sentabr kuni Markaziy bank raisi o‘rinbosari A. Turdaliev va Milliy kutubxona direktori U. Teshaboyeva kirish so‘zlari bilan boshlandi. Banklar va nashriyotlarning uchrashuvlari o‘tkazildi, “Tingla Al” va “Bookblog” ilovalari namoyish etildi. Bu kun ishtirokchilar bank tizimi va nashriyotlar hamkorligi bilan tanishish, yangi loyihalar haqida bevosita ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Birinchi kunning asosiy mazmuni — “Ma’rifat va iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik”, ya’ni bilimli jamiyat iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili ekanini keng targ‘ib qilindi.

25-sentabr kuni forum nashriyotlarning yangi loyihalari taqdimoti bilan boshlanib, unda mamlakatimizdagi ilg‘or nashriyotlar so‘nggi yillarda amalga oshirgan ishlarini va yangi kitoblarini namoyish etdi. Kun davomida “Mutolaa” loyihasi intellektual o‘yini va sahna ko‘rinishi bo‘lib o‘tdi. Marketing mutaxassisi Ulug‘bek Ismatov tomonidan “Kitob marketingida zamonaviy texnologiyalar” mavzusida master-klass tashkil etildi. Shuningdek, bolalar yozuvchisi Sa’dulla Quronov va shoir Nosirjon Jo‘rayev bilan uchrashuvlar, shoir Nurmuhammad Abduzoir bilan she’riy kecha o‘tkazildi. Bu kunning asosiy maqsadi – ijodiy muhit va biznes o‘rtasida yangi g‘oyalar almashinuvi uchun maydon yaratish edi. Tashrif buyurganlar ishtirokida kitoblar yuzasidan viktorina va nashriyotlarning savdo yarmakalari ikkinchi kunga yakun yasadi.

26-sentabr kuni forumning yopilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Marosim Milliy kutubxona direktori U. Teshaboyeva kirish so‘zi va “Milliy kutubxona burchagi” loyihasi taqdimoti bilan boshlandi. Shundan so‘ng Markaziy bank raisi T. Ishmetov nutq so‘zlab, “Moliyaviy bilimlar” ruknida chop etilgan kitoblarning jamiyat uchun ahamiyatini ta’kidladi. Harvard universiteti professori, “Makroiqtisodiyot” kitobi muallifi N. Gregory Mankiw videomurojaati namoyish etildi. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Q. Qurbanboyev “Mahalla kutubxonasi” loyihasi haqida ma’lumot berdi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va bilimli jamiyatni shakllantirish yo‘lida muhim qadam sifatida “Mahalla kutubxonasi” loyihasi bo‘yicha Qo‘shma qaror imzolandi. Shuningdek, banklar va nashriyotlar o‘rtasida kelgusidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida 9 ta hamkorlik memorandumini imzolandi. Jumladan, Xalq banki va “Asaxiy Books” nashriyoti, Mikro kreditbank va “IjodNashr” nashriyoti, O‘zsanoatqurilishbank va “Mutolaa” platformasi, Turonbank va “Gutenberg” nashriyoti, Aloqabank va “Tingla Al” / “Cosmos” nashriyoti, TBC Bank va “Asian Book House” nashriyoti, O‘zbekiston Milliy banki va “AkademNashr” nashriyoti, InfinBank va “Yangi asr avlodi” nashriyoti, shuningdek Anorbank va “Farengeyt Press” nashriyoti o‘rtasida hamkorlik hujjatlari imzolandi.

Ushbu kelishuvlar banklar va nashriyotlar o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va aholining bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, "Bank va Ma'rifat: Bilimli jamiyat bilan qudratli iqtisodiyot sari" forumi banklar, nashriyotlar va jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qildi. Tadbir davomida kitob nashrlari, mahalla kutubxonalari va moliyaviy savodxonlik tashabbuslari birlashtirilib, aholiga yaqin bo'lgan bilim manbalari mustahkamlandi. Bu jarayon nashriyot sohasi bilan bir qatorda mahalla darajasida ham qo'llab-quvvatlanib, iqtisodiy va ijodiy loyihalarga yangi imkoniyatlar ochmoqda. Forum natijalari kelgusida ushbu yo'nalishlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun:

Mahalla kutubxonalari loyihasi ham forumning muhim yo'nalishlaridan biridir. 2023-yilda Buxoro viloyati Olottumanida ilk mahalla kutubxonasi tashkil etilgan. 2024-yil may oyida Toshkent shahrida 109 ta mahallada kutubxonalar ochildi. Bugungi kunda mamlakat bo'ylab ularning soni 116 taga yetgan. Ushbu tashabbusga 17 ta tijorat banki homiylik qilgan, jumladan Milliy bank 16 ta, Xalq banki 12 ta, Ipak yo'li banki 9 ta, Turon banki 7 ta kutubxona tashkil etishda ko'maklashgan. Har bir kutubxonaga 1000 tadan kitob taqdim etilgan va ular qisqa muddatda inventarizatsiyadan o'tkazilib, aholiga xizmat ko'rsatishni boshlagan.

Loyiha doirasida 100 dan ortiq xotin-qizlar ish bilan ta'minlangan va ular Milliy kutubxona bilan hamkorlikda maxsus tayyorgarlikdan o'tib, sertifikatga ega bo'lishgan. Mahalla kutubxonalaridan foydalangan ko'plab yoshlar "Yosh kitobxon", "Zukko kitobxon" tanlovlarida muvaffaqiyat qozongan. 2024-yilda "Yosh kitobxon" tanlovida g'olib bo'lgan 19 yoshli Og'uljeren Xoldurdiyeva buning yorqin misolidir.

2025-yil aprel oyidan boshlab har bir mahalla kutubxonasida "Moliyaviy savodxon mahalla" loyihasi doirasida 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga moliyaviy savodxonlik darslari o'tkazila boshlangan. Birinchi darslardayoq 1903 nafar bola qamrab olingan.

Bugungi kunda mahalla kutubxonalari aholining 700 mingga yaqinini bepul xizmat bilan qamrab olgan. Bir yil ichida 100 minglab tashrif buyuruvchilar va 50 mingga yaqin muntazam kitobxonlar shakllangan. Mahalla kutubxonalari asosida yuzlab madaniy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual o'yinlar, ijodiy uchrashuvlar va kitob muhokamalari o'tkazib kelinmoqda.

"Moliyaviy bilimlar" rukni doirasida nufuzli iqtisodchilar va olimlarning asarlari tarjima qilindi. Bu rukn doirasida Markaziy bank tashabbusi bilan moliya, iqtisodiyot va tadbirkorlikka oid asarlar tarjima qilinib, keng jamoatchilikka taqdim etib kelinmoqda. Milton Friedmanning "Kapitalizm va erkinlik" asarida iqtisodiy erkinlik va bozor munosabatlari haqida fikrlar berilgan. Frederic Mishkinning "Pul, banklar va moliyaviy institutlar iqtisodiyoti" kitobida bank tizimi va moliyaviy institutlarning faoliyati keng yoritilgan. Jeffrey Wooldridgening "Ekonometrikaga kirish" asari iqtisodiy tahlilda statistik usullarni tushuntiradi. N. Gregory Mankiwning "Makroiqtisodiyot" va "Iqtisodiyot prinsiplari" kitoblari iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, talab va taklif qonunlari kabi asosiy tushunchalarni keng auditoriyaga yetkazadi. Paul Krugman, Maurice Obstfeld va Marc Melitzning "Xalqaro iqtisodiyot" asari xalqaro savdo va moliya tizimlarini tahlil qiladi. Joseph Stiglitzning "Davlat boshqaruvi iqtisodiyoti" kitobi soliqlar, davlat byudjeti va ijtimoiy xizmatlar masalalariga bag'ishlangan. Adam Smithning "Xalqlarning boyligi" asari iqtisodiyot fanining ilk manbalaridan biri sifatida iqtisodiy taraqqiyot sabablari haqida yozilgan. Francis Fukuyamaning "Tarixning oxiri va oxirgi odam" asari siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni sharhlaydi. Fareed Zakariyaning "The Future of Freedom" kitobi zamonaviy demokratiya va iqtisodiy erkinlikning muvozanati haqida hikoya qiladi.